



KUNDALIK MULOQOTDA IMPLIKATURA VA PRESUPPOZITSIYA VA UNING AHAMIYATI

Tursunova Sevinch Akmal qizi

SamDCHTI talabasi

sevinchtursunova88@gmail.com

Ilmiy rahbar: Artikova Nodirabegim Sanakulovna

Annotatsiya: Ma'lumki til – eng muhim ijtimoiy hodisa sanaladi. Kishilar hayoti davomida jamiyatning boshqa a'zolari bilan muloqotga kirishadilar va ba'zan o'z ichki hissiyotlarini bo'lishsalar, boshqa payt axborot almashinuvini aynan til orqali amalga oshiradilar. Ammo, inson tafakkuri faqtgina suhbat davomida aytilgan so'zlar va uning tor manosi bilan chegaralanib qolmaydi va bu implikatura hamda presuppozitsiya hodisalarini hosil qiladi. Ushbu maqolada, ko'p hollarda e'tiborsiz qoldiriladigan, lekin kundalik muloqotda yaxshigina o'ringa ega ushbu tushunchalar haqida gap boradi, ularning farqlari tushuntiriladi va ingliz va o'zbek tilidan misollar orqali dalillanadi.

Kalit so'zlar: Implikatura, Presuppozitsiya, Relevant, Truthful, clear, quality, Egzistenal, Struktural.

KIRISH.

Biz kun davomida do'stlarimiz, yaqinlarimiz, hamkasblarimiz ya'ni atrofimizdagi insonlar bilan suhbatlashganimizda aytilmagan ma'noni ham ongimiz orqali tafakkur qilib olamiz yoki boshqalarda buni kuztamiz.

Masalan: Zebi: - Ona, siz ham yosh bo'lganmisiz?

Ona: - Bolam, yosh bo'lmagan odam bo'ladimi ?

Ko'rinadiki, bu yerda ona ham bir paytlar yosh bo'lganligini uning nutqidan bilishimiz mumkin. Aynan mana shu holat implikaturaga asos bo'ladi.

Implikatura-bu nutqda bevosita aytilmagan, ammo ma'no jihatidan anglashilgan ma'lumotdir. Ya'ni so'zlovchi bir gapni aytadi, lekin shu gap orqali yana qo'shimcha yashirin ma'noni ham yetkazadi. Buni yanada chuqurroq anglash uchun implikaturani birinchi ishlab chiqqan olim Paul Gricening Implikatura haqidagi tadqiqotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning “Hamkorlik tamoyili” (Cooperative Principle) nazaryasi nutqni anglashda muhim ahamiyatga ega.

Gricening fikriga qaraganda, suhbat qurayotgan insonlar muloqot davomida hamkorlikda bo'lishadi, ya'ni ular:

- Haqiqiy (Truthful) bo'lishadi.
- Tegishli (Relevant) bo'lishadi- mavzudan chetlashishmaydi.
- Aniq (clear) bo'lishadi – ochiq va hech narsani ichida saqlamagan holda gapirishadi.
- Fikrini yetarli (quality) darajada ochib bergan holda izohlashadi.

Lekin ko'p hollarda odamlar bu tamoyilga rioya qilishmaydi, va implikatura shu jarayonda yuzaga keladi.

Masalan: Zebi: - Onajon nima uchun odamlar bizdan yuz burishadi?

Ona: - Odamlar har xil, qizim...

Example: “Hamlet, you hast your father much offended”.

“Mother, you have my father much offended.”

Ya'ni bu yerda muallif Hamletning tilidan ochiqchasiga siz otamga hiyonat qildingiz degan ma'noni yash

Bu yerda shuni kuzatish mumkinki, Ingliz tilida ham o'zbek tilidagi kabi presuppozitsiya ayni vazifani bajaradi

Implikatura: Onaning fikrida achchiq haqiqat ya'ni odamlar insonlarning ularning mansabiga, boyligiga, qisqa qilib aytganda qo'lining kalta yoki uzunligiga qarab muomala qilishi yashirin tarzda keltirilgan.



Implikatura quyidagi sohalarda muhim:

Pragmatika sohasida: Ma'lum bir nutqni tahlil qilishda uning gap mazmunida ko'rinib turganidan ham kengroq mohiyatini ochib berish zarur va bunda implikatura muhim ahamiyat kasb etadi.

Diskurs tahlili: Matnlar va muloqotlar tahlilida ham aynan shunday hodisani kuzatish mumkin.

Tarjima nazaryasi: Bilamizki bir asarni yoki nutqni boshqa bir tilga tarjima qilinganda, mentalitet va madaniyatga bog'liq ravishda ma'noda biroz o'zgarish kuzatilishi mumkin. Bu jarayonda asar muallifining hamda so'zlovchining aynan nima demoqchi ekanligini kitobxon va tinglovchiga to'g'ri yetkazib berishda implikaturaga yuzlaniladi.

Sun'iy intellekt: Ma'lumki sun'iy intellekt inson ongidan farqli o'laroq, uning ishlash texnikasiga nima dasturlangan bo'lsa, o'sha orqali ma'lumot almashishi mumkin. Hozirgi zamonda esa insonlar bilan bevosita muloqot qilish bilan bir qatorda ularning muammolarini tinglab samarali yechim bera olayotgan intellektlar oz emas. Bu esa ularni dasturlashda implikaturadan muvoffaqiyatli foydalanilganidan dalolat beradi.

Presuppozitsiya nima?

Presuppozitsiya- gap aytilganda u gapdagi ma'lum bir ma'lumot tinglovchi oldindan haqiqiy deb hisoblagan taxminni ifodalaydi. Ya'ni gapning asosiy mazmuni aytilishidan oldin ma'lum bir fakt yoki shart “taxmin” qilingan bo'ladi.

Bunga O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridan quyidagini misol keltirish mumkin:

“Muzaffar bugun yana kech keldi”

Bu yerda presuppozitsiya deb shuni aytish mumkinki, bu Muzaffarning birinchi marotaba kechikishi emas ya'ni ushbu nutqdan uning oldin ham shu holatni takrorlagani anglashiladi. “Yana” so'zi esa gapning presuppozitsion ma'nosini yanada kengroq ochib bergan.

Shu o'rinda ingliz adibi Uilyam shekspirning “Hamlet” asaridan quyidagi misol keltirish orqali taqqoslash mumkin:

“Have you seen the ghost tonight?”

Ya'ni gapdan anglashiladiki, “ghost” ya'ni arvoq mavjud va uni haqiqat sifatida qabul qilinayapti.

Presuppozitsiyaning mohiyati

Presuppozitsiya – ikki suhbatdoshning bir birini yanada to'g'ri tushunishiga ko'maklashadi. Ammo buning uchun ularda oldindan ma'lum bo'lgan bilim yoki kontekst talab qilinadi.

Prosopozitsiyaning turlari:

1.Faktual prosuppozitsiya- voqelikda amalga oshgan yoki amalga oshmagan hodisaga asoslanadi.

Masalan: “Zebi bugun ham ko'zyosh to'kdi.”

Demak u o'tgan kuni ham qandaydir sabab tufayli yig'lagan.

Example: “I am glad to see you well, Hamlet.”

Prepozitsiya – Glad va Well so'zlari orqali ochilayotgan factual fikrga qaraydigan bo'lsak Hamlet oldin hasta bo'lgan yoki o'zini yomon his qilgan. Ammo hozir nisbatan yaxshi.

2.Egzistensial (Mavjudlik) presuppozitsiya – Bir narsa yoki kishining mavjudligini izohlaydi.

Masalan: “Aslida o'lib qolgan Muzaffarning o'z onasi ekan”

Bu yerda shuni anglash mumkinki Muzaffarning o'z onasi bilan bir qatorda o'gay onasi ham bor (mavjud)

Example:Where is your father, Ophelia?

Presuppozitsiya Ofeliyaning otasi bor(mavjud)

3.Struktural (Sintaktik) presuppozitsiya –gapning tuzilishida namoyon bo'ladi.

Masalan: “Cho'ntagingga sigaret qayerdan keldi?”

Zebi tomonidan aytilgan ushbu gap mazmunidan Muzaffar onasidan yashirinch sigaret olib chakkanini anglash qiyin emas.

Example: “Whay you always speak with anger”.

Ya'ni Hamlet ko'p hollarda onasiga nisbatan jahl bilan gapiradi. Bu esa fakt sifatida ushbu nutqdan anglashilmoqda.



4. Leksik presuppozitsiya – gap tarkibidagi ayrim soʻzlar maʼnosiga qarab bilib olish mumkin.

Masalan: “Muzaffar qattiq afsusda edi”.

U afsuslanishga arziydigan qandaydir ish qilib qoʻygan.

Example: “I doubt Hamlet learned the truth”

Demak, Hamletning amakisi tilidan keltirilgan ushbu misolda amakisi Hamletni xafa qiladigan nimadir qilganini tushunib olish qiyin emas.

5. Konturfaktual presuppozitsiya – Maʼlum bir voqea sodir boʻlmay turib qandaydir taxminga ishonish.

Masalan: “Agar Zebi onasining xonasiga kirmaganida, u bu haqiqatdan xabar topmagan boʻlar edi”. Bu yerda “Agar” va “Boʻlmaganida” soʻzlari orqali haqiqat boʻlmagan holat faraz qilinib, fakt deb faraz qilingan.

Example: “If I could pray, I could kill him too”.

Bu yerda agar men qila olsam (If I could) ibora orqali konturfaktual shart hosil qilingan.

Presuppozitsiya va implikatura farqi

Presuppozitsiyada “taxmin” oldindan mavjud va toʻgʻri deb qabul qilingan boʻlsa implikaturada esa soʻzlovchi oʻz soʻzini soʻzlaganidan soʻnggina u yetkazmoqchi boʻlgan yashirin maʼnoni anglash “taxmin” qilish mumkin garchi u toʻgʻridan toʻgʻri aytmagan boʻlsa ham.

Xulosa:

Qisqa qilib aytganda, til qatlamimizda mavjud boʻlgan oʻta nozik va asosan eʼtibordan chetda qoladigan ushbu hodisalar yaʼni implikatura (gap ichida yashiringan niyat orqali anglashilgan yashirin maʼno), hamda presuppozitsiya (faktga tayanadigan yashirin maʼno) bir biridan biroz farqlansa ham nutqni boyitish hamda uning salmogʻini oshirishda muhim oʻrin tutadi. Bu hodisalar nafaqat yuqorida keltirilgan sohalarda yoki fanda, balki, kundalik muloqotda nutqimizda ishlatilayotgan soʻzlarning chuqurroq maʼnolarini keng ochib berishda va fikrning nozik jihatlarini his etish bilan bir qatorda uni yetarlicha anglashda yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI :

1. Oʻtkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”

2. Uilyam Shekspir “Hamlet”

??, Sodikova, N. G. (2021). PRESERVATION OF THE ROLE OF THE GERMAN LANGUAGE AS A MEANS OF SCIENTIFIC COMMUNICATION WITHIN THE FRAMEWORK OF THE CONCEPT OF MULTILINGUALISM. Theoretical & Applied Science, (8), 338-341.

??, Sodikova, N. (2019). On the influence of the main variants of English on German. SCOPE ACADEMIC HOUSE B&M PUBLISHING, 153.

??, Содикова, Н. Г. (2019). РОЛЬ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА. ЗАМОНАВИЙ ТИЛШУНОСЛИК ВА ЛИНГВОДИДАКТИКАНИНГ КОММУНИКАТИВ АСПЕКТЛАРИ, 140.

6. Содикова, Н. Г. К ВОПРОСУ О ТЕНДЕНЦИИ К АНАЛИТИЗМУ В СОВРЕМЕННОМ НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ.